



**IJODIY FAOLIYAT (RASM CHIZISH, LOYDAN YASASH) ORQALI
NUTQ BUZILISHLARINI KORREKSIYA QILISH: EKSPERIMENTAL
TADQIQOT**

Azizabonu Usmonova Obidjon qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Special Pedagogy fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarda ijodiy faoliyat — xususan, rasm chizish, loydan yasash kabi san’atkorona mashg‘ulotlar orqali nutq funksiyalarini rivojlantirish va korreksiya qilish imkoniyatlari o‘rganiladi. Eksperimental tadqiqot asosida ijodiy faoliyatning bolaning psixologik holati, nutqiy faolligi va kommunikativ qobiliyatlariga ijobiy ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda 5–8 yoshdagi nutqida buzilish kuzatilgan bolalar jalb etilib, ular bilan san’at terapiyasi elementlarini o‘z ichiga olgan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy faoliyat bolalarda emotsiyal holatni barqarorlashtirish, nutqiy faollikni oshirish va so‘z boyligini kengaytirishda samarali vosita bo‘la oladi. Maqola yakunida ushbu yondashuv asosida logopedik ishlar uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar:

Nutq buzilishlari, ijodiy faoliyat, rasm chizish, loydan yasash, san’at terapiyasi, logopedik korreksiya, eksperimental tadqiqot, mактабгача yoshdagi bolalar, kommunikativ rivojlanish, emotsiyal holat.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются возможности коррекции и развития речевых функций у детей с речевыми нарушениями через творческую деятельность — в частности, рисование и лепку из глины. На основе экспериментального исследования анализируется положительное влияние



художественной активности на психологическое состояние ребенка, речевую активность и коммуникативные способности. В исследовании участвовали дети в возрасте от 5 до 8 лет с речевыми нарушениями, с которыми проводились специальные занятия с элементами арт-терапии. Результаты показали, что творческая деятельность способствует стабилизации эмоционального состояния, активизации речи и расширению словарного запаса. В конце статьи представлены практические рекомендации по применению данного подхода в логопедической практике.

Ключевые слова:

Речевые нарушения, творческая деятельность, рисование, лепка из глины, арт-терапия, логопедическая коррекция, экспериментальное исследование, дети дошкольного возраста, коммуникативное развитие, эмоциональное состояние.

Abstract:

This article explores the potential of using creative activities—particularly drawing and clay modeling—for the development and correction of speech functions in children with speech disorders. Based on experimental research, the study analyzes the positive impact of artistic activities on children's psychological well-being, verbal activity, and communicative abilities. The experiment involved children aged 5 to 8 with speech disorders, who participated in specialized sessions incorporating elements of art therapy. The results demonstrate that creative engagement can serve as an effective tool to stabilize emotional states, enhance verbal activity, and expand vocabulary. The article concludes with practical recommendations for using this approach in speech therapy sessions.

Keywords:

Speech disorders, creative activity, drawing, clay modeling, art therapy, speech correction, experimental research, preschool children, communicative development, emotional state.



Kirish

Zamonaviy difektologiyada nutq buzilishlari bilan yashovchi bolalar bilan ishslashda innovatsion va noan'anaviy yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Nutq — bu nafaqat insonning tashqi ifoda vositasi, balki uning ichki dunyosini, tafakkurini, ijtimoiy va emotsiyal holatini aks ettiruvchi muhim psixologik va pedagogik hodisadir. Aynan shu sababli, nutq buzilishlarini korreksiya qilishda faqat an'anaviy logopedik mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmasdan, bolani har tomonlama rivojlantiruvchi, emotsiyal va ijodiy jarayonlarga jalb etuvchi faoliyat turlarini qo'llash dolzarb hisoblanadi.

Ijodiy faoliyat — xususan, rasm chizish, loydan yasash, kollej yasash kabi mashg'ulotlar bolalarning nafaqat estetik didini shakllantiradi, balki ularning nutqiy faoliyatini ham bevosita rag'batlantiradi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bolalar tasviriyl faoliyat jarayonida o'z fikrini ifodalashga, predmetlar va harakatlarni tasvirlashga, his-tuyg'ularini ifoda etishga harakat qiladilar. Bu esa ularning nutqiy rivojiga, ayniqsa leksik va grammatik jihatdan boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada aynan ijodiy faoliyatning nutq buzilishlariga ega bo'lgan 5–8 yoshli bolalar nutqini korreksiya qilishdagi o'rni va samaradorligi eksperimental tadqiqot asosida o'rganiladi. Shuningdek, maqolada san'at terapiyasi elementlarining logopedik mashg'ulotlarga integratsiyasi, ularning pedagogik va psixologik foydasi tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, logopedlar uchun yangi uslubiy yondashuvlar taklif etiladi.

Nazariy asoslar

Nutq buzilishlari bola rivojlanishining turli bosqichlarida yuzaga keladigan psixofiziologik muammolarning ifodasıdir. Logopediya fanida nutq buzilishlarini tuzatishda turli usullar va metodlardan foydalilanadi, ammo so'nggi yillarda psixoterapevtik va san'atkorona (ijodiy) yondashuvlar muhim o'rin egallamoqda.



San'at terapiyasi — bu san'at vositalari orqali psixologik va emotsional holatni tartibga solish, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish usuli bo'lib, bu yondashuv logopedik faoliyatda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Rasm chizish, loydan yassash, ranglar bilan ishslash — bola uchun o'z fikr va his-tuyg'ularini vizual tarzda ifoda etish imkonini yaratadi. Bu holat esa nutqiy faoliyatni rag'batlantiradi, bolani so'zlashga undaydi va uning lug'at boyligini kengaytiradi. Ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyat bilan shug'ullangan bolalarda logopedik mashg'ulotlar samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Eksperimental tadqiqot tavsifi

Maqsad:

Ijodiy faoliyat vositalarining 5–8 yoshli bolalar nutqini rivojlantirish va korreksiya qilishdagi samaradorligini aniqlash.

Ishtirokchilar:

Tadqiqotda 10 nafar 5–8 yoshli bolalar (nutqiy buzilishi aniqlangan) ishtirok etdi.

Metodika:

- Bolalar bilan 1 oy davomida haftasiga 3 marta ijodiy mashg'ulotlar (rasm chizish, loydan shakllar yasash, kollej yasash) olib borildi.
- Har bir mashg'ulotga nutqiy faoliyatni rag'batlantiruvchi topshiriqlar integratsiya qilindi (rasmni tasvirlab berish, harakatlarni ifodalash, so'z birikmalar tuzish).

Baholash mezonlari:

- So'z boyligi (aktiv va passiv lug'at)
- Nutqning grammatik tuzilishi
- Gap tuzish qobiliyati
- Emotsional holat (suhbatdosh bilan munosabat, ochiqlik)



Natijalar:

- 80% bolalarda so‘z boyligi kengaygani kuzatildi
- 70% ishtirokchida gap tuzish qobiliyati yaxshilandi
- 90% bola mashg‘ulotlarga ijobiy emotsiyonal munosabat bildirdi

Xulosa va amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijodiy faoliyat vositalaridan foydalanish — xususan, rasm chizish va loydan yasash kabi faoliyatlar — bolalarning nutqiy rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuv bolalarda erkin fikr ifodasi, emotsiyonal barqarorlik va kommunikativ faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

- Logopedik mashg‘ulotlarga ijobiy elementlarni majburiy integratsiya qilish;
- Har bir bolaga individual yondashuv assosida ijodiy faoliyat shaklini tanlash;
- Mashg‘ulotlar davomida bolani o‘z rasm yoki buyumlari haqida gapishtirishga undash;
- San’at terapiyasi metodikasini logopedlar va defektologlar o‘rtasida keng ommalashtirish.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova, R. R. (2019). *Logopediya asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Xolmatova, M. M. (2021). *Maxsus pedagogikada innovatsion metodlar*. Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti.
3. Temirova, D. A. (2020). "Ijodiy faoliyat orqali nutqni rivojlantirishning metodik asoslari". // *Defektologiya va logopediya ilmiy jurnali*, №2, 45–49-betlar.



4. Vygotsky, L. S. (1986). *Imagination and Creativity in Childhood*. Moscow: Progress Publishers.
5. Axunova, Z. Sh. (2022). "San'at terapiyasining logopedik korreksiyadagi o'rni". // *O'rta maxsus ta'limda innovatsiyalar*, №1, 32–36-betlar.
6. Venger, L. A. (1997). *Psikhologiya detskogo tvorchestva*. Moskva: Prosveshcheniye.
7. Mamedova, G. G. (2018). *Logopediya darslarida tasviriy san'atdan foydalanish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
8. Smirnova, E. O. (2010). *Razvitiye rechi doshkolnikov v processe izobrazitelnoy deyatel'nosti*. Moskva: Akademiya.
9. Gardner, H. (1993). *Multiple Intelligences: The Theory in Practice*. New York: Basic Books.
10. G'ulomov, A. A. (2017). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.